

O'QUVCHILAR IJODIY TASAVVURINI SHAKLLANTIRISHDA ETNOPEdagogik MANBALARDAN FOYDALANISH

Negmatova Zulayho Shermatovna,
Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti
nodavlat ta'lim muassasasi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada etnopedagogik asarlarning tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilar badiiy-ijodiy tasavvurini shakllantirishdagi o'rni, manbalari, metodologiyasi, tarbiyaviy ahamiyati ilmiy-nazariy asosda ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy tasavvur, etnopedagogika, o'quvchi, o'quv-biluv, ertak, metodologiya, didaktik o'yin, muammoli ta'lim.

Ma'lumki, ta'lim jarayonidan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish orqali ularning mustaqil ijodiy fikrlaydigan, mutaxassislikka doir tushuncha va ko'nikmalarini o'stirishdan iboratdir. Zero, mustaqil ijodiy ko'nikmaga ega bo'lgan o'quvchigina ijtimoiy borliqqa munosabat bildirib, hayotdagi narsa-hodisalarning mazmun-mohiyatini anglaydi. Ushbu holat esa bevosita umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflaridan boshlanadi. Chunki ta'limning dastlabki bosqichi maktabgacha va boshlang'ich sinflardan boshlanib, unda o'quvchilar o'qish, yozish, hisoblash, kuzatish, mehnat malakalarini egallash ko'nikmalariga yo'naltirib boriladi. Demak, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar dastlab savodxonlik asoslari va hisoblash tafakkuriga, umummadaniy va axloqiy ko'nikmalarga, mantiqiy tafakkur qilishga, ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish, o'zini-o'zi anglash salohiyatini shakllantirish orqali moddiy va ma'naviy go'zalliklarni his etishi, zavqlanish ko'nikmalariga ega bo'la beradi. Bu kabi xususiyatlar bevosita ma'naviy boyliklarimizni singdirish, ular orqali esa o'quv-biluv jarayoniga faol ishtirok etishni yuzaga keltiradi. Yuqorida tilga olingan xususiyatlarning boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarga shakllantirishda etnopedagogik materiallar muhim o'rin egallaydi. Chunki etnopedagogik manbalar orqali o'quvchilarning badiiy-ijodkorlik qobiliyati o'stiriladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga etnopedagogik matnlarni o'rgatish metodologik jihatdan o'zining ilmiy-nazariy ahamiyatini ko'rsatadi. Har bir bir *этнопедагогик* mavzu negizida o'quvchilarni hayotdagi narsa va hodisalarning yaxshisi nima-yu, yomoni nima degan qarash yetakchilik qilib, ular o'quvchilarni turli masalalarga ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ayniqsa, ertaklar bu o'rinda g'oyaviy mazmuni orqali katta ta'sir ko'rsatadi. Ertak janriga xos ushbu xususiyatni yaqqolroq o'quvchilarga tushuntirish maqsadida turli metod va usullar yetakchilik qilsa-da, didaktik o'yinlarning o'ziga xos ahamiyati bor. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida keltirilgan ertaklarni o'rgatishda

didaktik o'yinlarning turli-tuman shakllaridan ertak turi va mavzusiga e'tibor qaratib o'tish maqsadga muvofiqdir. "O'qish darslarida didaktik o'yinlardan foydalanilganda darsning maqsadi, vazifalari, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tizimini aniq rejalashtirib olish talab qilinadi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilar oldida qo'yiladigan o'quv-biluv xarakteridagi topshiriqlar ko'magiga muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish yo'llarini aniq bilish va oldindan loyihalashtirishni taqozo etadi. Bundan tashqari o'quvchilarni didaktik o'yinning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish, o'quvchilarga o'yin taqozo etadigan vazifalarni to'g'ri taqsimlash, o'quvchilarga aniq yo'llanma, ko'rsatmalar berish uning samarali natijasini ta'minlaydi. Didaktik o'yin asosida qurilgan o'quv-biluv xarakteridagi muammolarni hal etishda o'quvchilardagi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlari shakllanadi, asta-sekinlik bilan qat'iylashia boradi"[1,131]. Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertaklar garchi didaktik o'yinlar asosida o'rgatish metodikasi borasida bir qator fikr mulohazalar bildirib o'tilgan bo'lsada, ularni shunchaki qo'llash emas, balki o'quvchi ham nazariy jihatdan dars strukturasi borasida tushunchaga ega bo'lishi, ham asarning mazmuni, g'oyasi, unda qo'yilgan muammo borasida ham amaliy va nazariy tushunchalarni anglashga qaratilgan usullardan foydalanish amaliy natijalar beradi.

Ilmiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ertaklarni o'rgatish jarayonida dastlab ularning pedagogik-psixologik nuqtai nazaridan yosh xususiyatlarini ham e'tiborga olish lozim. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar ertaklarning mohiyatini tushunishi, ularga mos kelishi, eng asosiysi esa, ularni o'qitish jarayonida zeriktirmaslik, ertakka qo'yilgan mohiyatni tushuntirish metodikasini shakllantirish lozim bo'ladi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Ona tili va o'qish savodxonligi" (1-3-sinflar), "O'qish kitobi" (4-sinf) darsliklaridagi adabiy matnlarning asosiy qismini xalq og'zaki ijodi namunalari tashkil etadi. Qo'shiq, maqol, topishmoq, tez aytish, afsona, ertak va boshqa shu kabi namunalarda xalqning uzoq asrlik orzu-umidlari, an'analari, e'tiqodi, dunyoqarashi g'oyaviy-badiiy asosda sodda va ravon tilda aks ettirilganligi bilan o'quvchilarni badiiy, ijodiy tasavvurini shakllantirishda katta o'rin tutish bilan bir qatorda ilmiy dunyoqarashi va tafakkurini o'stirishda ham yetakchilik qiladi. Ayniqsa, ertaklar misolida bu holatni yaqqolroq ko'rish mumkin. Ertak xalq og'zaki ijodining nasriy janri bo'lib, "hayot haqiqati bilan bog'liq fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoya"dir[2.191]. Ertakka xos yana bir jihat shundaki, u o'quvchilarga faqatgina pand nasihat, o'git berib qolmasdan, ularning badiiy-ijodiy tafakkurini o'stirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, o'quvchilarni tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning yaxshi va yomon xislatlari borasida ularga kuchli taassurot uyg'otadi.

Darsliklarga keltirilgan ertaklar har tomondan o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tanlab olingan. Uchinchidan, darslikda faqatgina xalq ertaklari emas, balki adabiy ertaklar ham matn sifatida keltirib o'tiladi. Ertaklar qadimgi davrlardan ham yosh avlodni

vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda nutq o‘stirish va ijodiy tafakkur mezonini hisoblangan. S. Matchonov va boshqalar muallifligida chop ettirilgan 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligida[3.45] “Ertaklar mamlakatida” mavzusida xalq va adabiy ertaklardan namunalar keltirilgan bo‘lib, ularning mavzusi turlichadir. Masalan, “Ilm afzal” ertagida asosiy personajlar chol va qiz bo‘lib, ular oilaning barkamolligi, ilm va hunarning afzalliklarini his etib, chol bolalarining kelajagi haqida qayg‘urgan holda qizi bilan maslahatlashadi. Cholning qizi aqlli va farosatli bo‘lib, u ham akalarining ishyoqmas va dangasaligini, biror hunarni egallashni orzu qiladi. Ertak matnida ushbu tasvir dialogik holatda keltirilgan bo‘lib, unda tasvir quyidagicha: “Boboning sakkiz o‘g‘li va bir qizi bor edi. Qizi aqlli va sezgir ekan. Ota qiziga:

- Umringni uzoq qilsin, baxtimdan o‘rgilayki, senday farzandim bor. Lekin akalaringdan kuydim. Ularning mehnat qilishga bo‘yni yor bermaydi, o‘qib, ilm olib, odam bo‘linglar desam, gapimga quloq solishmaydi. Shuncha molimiz bor, o‘qib nima qilamiz, deyishadi. Men qarib qoldim, bu dunyodan ko‘z yumsam akalaringning holi nima kechadi, deb qo‘rqaman, qizim, - deb hasrat qilibdi”. Ertakda ko‘tarilgan asosiy maqsad cholning o‘g‘illariga mehnatsevarlikni o‘rgatish orqali ularning kelajak turmushiga va jamiyatga xizmati tegishi borasida fikr boradi. Ertak matnida keltirilgan cholning “Davlat afzalmi yoki ilmimi?” savoli voqealarni qiziqarli va muammoli tarzda kechishini ta‘minlaydi. Aqlga kirgan qiz esa ushbu jarayonni muammoli savollarga javob berish orqali akalari va ukasini maqsadli yo‘ldan borishini hoxlaydi. Ertak g‘oyasidagi asosiy maqsad ham shunga qaratilgan. Kenja o‘g‘ilning ilmni tanlashi va qizining ushbu fikrni qo‘llashi voqealarning yechimi sari undaydi. Ushbu voqealardan xabardor bo‘lgan akalar mehnat qilishga urinadilar. Albatta, ertakning yechimi qahramonlarni ezgu maqsadlar sari intiltirish. Barcha ertak voqealari yaxshilik va murod-maqsadga yetish bilan tugallanadi. Birgina ushbu ertak orqali o‘quvchilar matnning mavzusidan kelib chiqqan holda unda qo‘yilgan g‘oyaviy maqsadni angelaydi. Ikkinchidan, matnda keltirilgan dialogik jarayon, turli xildagi muammoli vaziyat hamda ushbu tasvirni gavdalantiruvchi til vositalarining o‘rinli qo‘llanish ahamiyati badiiy tafakkurini o‘stirishga harakat qildiradi.

O‘quvchilar ertak voqealarining izchil davom etishi orqali muammoning yechimi nimada ekanligini angelaydi. Demak, ertaklarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatish orqali ularning faqatgina badiiy tasavvurini o‘stirish bilan bir qatorda ijodiy tasavvurini ham o‘yg‘otish ahamiyatlidir. Ijodiy tasavvur ertakdagi turli o‘rinlarga izoh berish, o‘quvchilarni muammo girdobiga olib kirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish asnosida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda ertakdagi qahramonlar xarakterini o‘rganish, ikkinchidan, ertak voqealarida dramatik vaziyatni yuzaga keltiruvchi omillarni sinchkovlik bilan tahlil qildirish, uchinchidan, turli didaktik usullarni samarali qo‘llash asosida ijodiy tafakkuri shakllantirib boriladi.

Shu bilan bir qatorda ta‘limning maqsadidan kelib chiqqan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining mustaqil fikrlashi, badiiy ijodkorligi, ilmiy-nazariy bilimlarni egallash uslubini

o‘yinlar asosida qurishning o‘zi alohida muammodir. Chunki barkamol avlodni shakllantirishning bosh omili o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Chunki o‘quvchi o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilayotgan natijalarning tinglovchisi emas, balki ishtirokchisiga aylanishi, buning uchun o‘qituvchi ijodkor, mavzuni bayon etishda turli xil muammoli vaziyatlarni keltirishi, o‘quvchilarni voqelik haqida bosh qotirishga, xayolot olamiga, fikr bildirishga majbur etishi lozim. Darslikda keltirilgan “Davlat”, “Ko‘zacha bilan tulki”, “Ziyrak bola” va boshqa ertaklarda ham o‘quvchilarni har tomonlama badiiy, ijodiy tasavvurini shakllantirishga qaratilgan g‘oyaviy maqsad mavjud bo‘lib, o‘quvchilar ularning faqatgina tinglovchisi emas, balki ongli his etishi orqaligina davom ettirishi muhimdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy, ijodiy tasavvurini shakllantirishga qaratilgan bir qator metod va usullarning nazariy hamda amaliy asoslarini ishlab chiqish esa ta‘lim jarayonidagi asosiy omillardandir.

Xulosa qilib aytganda, etnopedagogik manbalarning turlari va tarbiyaviy imkoniyatlari keng bo‘lib, o‘quvchilar ijodiy tasavvurlarini shakllantirishda muhim manba vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q. va boshq. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. –B. 131.
2. Imomov K va boshq. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – B. 191.
3. Matchonov S va boshq. O‘qish kitobi. Umumta‘lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. –Toshkent, 2020. –B. 245.
4. Negmatova Z. Theoretical principles of forming students’ artistic-creative imagination // Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). Vol.12, Issue, 5 may (2024). -Pp. 728-730.